



SULAYMON PAYG 'AMBAR VA HUDHUD QUSHI: AXBOROT VA DIPLOMATIK ALOQA TIMSOLI SIFATIDA

Muxammadiyeva Baxor Quadrat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs talabasi
+99894 256-77-06
muxammadiyevabaxor5@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20702779>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zining dono va zukkoligi bilan tanilgan hudhud qushi va Sulaymon payg'ambar obrazlari o'rtasidagi munosabatlar turli adabiyot namunalarida elchilik, axborot va diplomatiya sifatida talqin etilishi bir qancha misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: hikoyatlar, hudhud, elchilik, da'vat, payg'ambar, Qur'on, adolatli boshqaruv, Saba' qavmi, "Sulaymon va Bilqis" hikoyati.

Abstract: This article highlights the relationship between the images of the falcon, known for its wisdom and ingenuity, and the Prophet Solomon, through several examples, which are interpreted as ambassadorship, information, and diplomacy in various literary works.

Keywords: stories, hudhud, embassy, invitation, prophet, Quran, just governance, Saba' people, story of "Sulayman and Bilqis".

Аннотация: В данной статье на ряде примеров рассматривается взаимосвязь между образами ястреба, известного своей мудростью и изобретательностью, и пророка Соломона, интерпретируемых как символы посольства, информирования и дипломатии в различных литературных произведениях.

Ключевые слова: рассказы, худхуд, посольство, приглашение, пророк, Коран, справедливое управление, жители Сабы, история «Сулеймана и Билькис».

Sulaymon alayhissalom obrazi ko'plab adabiyot namunalarida o'zining cheksiz qudrati, kuchli saltanati va Alloh tomonidan ikrom etilgan, ko'z ko'rib ishonilmas mo'jizalari bilan sezilarli iz qoldirgan. Qushlar tilini tushunishni otasidan meros qilib olgan Sulaymon qo'l ostida bir necha xil qushlarni tarbiya qilardi. Bularning orasida hudhud (sassiqpopishak) ham bor edi.¹

E'tiborli jihati shundaki, Sulaymon payg'ambar muhim qarorlarni qabul qilishda yoki turli davlatlar bilan muzokara jarayonida aynan hudhud qushining xabar va sezgilariga tayangan. Hudhudning boshqa qushlarda mavjud bo'lmagan qobiliyatidan biri uning yerosti suvlarini sezishidir. Sulaymon payg'ambar yerosti suvlarini izlab topishda hudhudning ushbu sezish qobiliyatidan foydalangan. Suv bor yerga ishora qilsa, hukmdor Sulaymon jinlarga o'sha yerni qazishga farmon berar va suvni topishar edi. Shuning uchun uning zamonaviy ismi suv injeneridir.² Bundan ko'rinadiki, payg'ambar hudhud qushining boshqa qushlardan aql va sezgi jihatdan ustun ekanligini bilgan holda uning qarorlariga tayanib ish olib borgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

"Qisasi ar-Rabg'uziy" asarida Alloh dunyoni yaratgandan keyin yer yuzi mulkini odam avlodiga qadar qushlarga berganligi va qushlar yetti ming yil davomida yerga egalik qilib

¹ Tilakova N. // "Ilohiynoma" asaridagi Sulaymon alayhissalom hikoyatlari tahlili" maqola

² Muslim.uz sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

boshqarganligi qayd etiladi. Asarda tabiat jonzorlaridan chumoli, qaldirg'och, hudhud, asalari kabilarga o'zgacha ehtirom bilan qaraladi. Ayniqsan ushbu asarning Sulaymon bobida "Hudhud so'zlari" degan alohida bir fasli mavjud bo'lib, unda hudhud qushi quyoshga e'tiqod qiluvchi Saba' xalqi haqida payg'ambarga xabar keltiradi va Sulaymon alayhissalom tomonidan yozilgan maktubni Saba' malikasi Bilqisga olib borib beradi. Bu voqealar orqali hudhud qushi asarda elchilik va xabargirlik vazifasini bajarganligini anglashimiz mumkin. Bundan tashqari, Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ham:

Rafiqing tayr andoqkim Sulaymon ollida hudhud,

Buroqing soyir anjum shoh ostida sariroso

Hudhud qushi oxirzamon payg'ambariga vahiy olib keluvchi Jabroyil farishtaga o'xshatiladi. Xuddiki farishta payg'ambarga vahiy, xushxabar keltirgani kabi hudhud ham Sulaymonga ma'lumot, xabar yetkazib turgan.³

Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida esa hudhud obrazini yo'lboshchi, nasihatgo'y sardor sifatida ko'rishimiz mumkin. U boshqa qushlarni o'z maqsadlari yo'lida sobit bo'lishga undaydi va ortiqcha bahonalardan xalos bo'lishga chaqiradi. Ushbu obraz Qur'on suralarida ham o'z aksini topgan. Misol uchun, Naml (chumoli) surasida quyidagicha keltiriladi:

٢٠ (الغَائِبِينَ مَنْ كَانَ أُمُّ الْهُدُودِ أَرَى لَا لِي مَا قَالَ الطَّيْرَ وَتَفَقَّدَ

"U qushlarni ko'zdan kechirib: "Nega men hudhudni ko'rmayapman, balki u (beruxsat) g'oyib bo'luvchilardandir?!"⁴ deya hudhudning nega g'oyib bo'lgani haqida gumon qila boshlaydi va

٢١ (مُؤْمِنِينَ بِسُلْطَانٍ لِيَأْتِيَنِي أَوْ أَدْبَحْنَهُ لَا أَوْ شَدِيدًا عَذَابًا لِأَعْدِبْنَهُ

"Albatta, uni qattiq azob bilan jazolayman yo so'yib yuborurman yoki menga (uzrini bayon qilib) aniq hujjat keltirur». ⁵ Naml surasining ushbu oyatlaridan ko'ramizki, hudhud Sulaymon alayhissalom faoliyatida muhim o'rin egallagan, ya'ni qushning jamoat safida yo'qligi darrov sezilib turadi. Bundan tashqari, uning hujjat keltirmasa so'yib yuborilishi haqidagi gaplar hudhudning doimo muhim xabarlar keltirib turganiga ishora qiladi.

Jahon adabiyotiga nazar solar ekanmiz, Farididdun Attorning "Mantiq ut-tayr" asari g'oyalaridan foydalanilgan holda Peter Sis tomonidan bolalar uchun moslashtirilgan "The Conference of the Birds" kitobi e'lon qilinadi va unda ham hudhud qushi yetakchi asosiy obraz sifatida yoritiladi.

Maqolada izohlash, muhokama va qiyosiy metodlardan foydalanildi.


Natija va muhokamalar

Hudhud qushi va Sulaymon alayhissalom o'rtasidagi aloqalar chuqur bog'liqlik asosiga qurilgan bo'lib, ular quyidagi voqealar asosida namoyon bo'ladi:

³ Qobilov U // "Qissasi ar-Rabg'uziy" asarida jonivorlar tasviri va uning lirik ifodasiga doir qarashlar"

⁴ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent – "Toshkent Islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004. – B. 378

⁵ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent – "Toshkent Islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004. – B. 378



Xulosa.

Sulaymon payg'ambar va hudhud qushining o'zaro munosabatlari xabarchilik, elchilik va diplomatik aloqalar ustiga qurilgan bo'lib, hozirgi kundagi diplomatiyaning yaqqol namunasi bo'la oladi. Hudhud qushi faqat xabarchilik vazifasini bajaribgina qolmay, balki payg'ambarning maishiy hayotida ham unga ko'pgina ishlarda yordamchi bo'la olgan. Bu uning sadoqatli qush ekanligini isbot eta oladi. Shuningdek bu obraz nafaqat mumtoz adabiyot namunalarida, balki jahon adabiyotida ham ma'lum darajada mavqega ega sanaladi,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tilakova N. // "Ilohiynoma" asaridagi Sulaymon alayhissalom hikoyatlari tahlili" maqola
2. Muslim.uz sayti ma'lumotlari.
3. Qobilov U // "Qissasi ar-Rabg'uziy" asarida jonivorlar tasviri va uning lirik ifodasiga doir qarashlar"
4. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent – "Toshkent Islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004. – B. 626